

---

## Xojiakbarning biznesi

### **Tadbirkor - el-yurtga madadkor**

Qozog'istondagi meva-sabzavot quritish va qadoqlash korxonasi hamda restoranlarida ishlagan Hojiakbar Murodov yaxshi niyatda yurtimizga qaytdi. Maqsadi o'z uyida yurtimizda pishib yetilgan meva-sabzavotlarni quritish va qadoqlash korxonasi tashkil qilish edi.

Hojiakbar Murodovning tashabbusini Qo'shtepa tumanidagi "Eshonguzar" mahallasi hokim yordamchisi Akbarjon Umarov qo'llab-quvvatladi va unga Prezidentimizning o'tgan yil 14 sentyabrdagi qaroriga ko'ra, 100 million so'm garovsiz imtiyozli kredit olib, o'z biznesini boshlashiga amaliy yordam berdi.

Imtiyozli kreditni olib, Turkiya va Xitoydan meva-sabzavotni qayta ishslash va quritish uskunalarini sotib olgan yosh tadbirkor hozirda xonardonida o'z biznesini boshlab, to'rtta ish o'rni yaratdi.

- Yurtimizda quritilgan meva va sabzavotlarga xorijda talab katta. Shuni inobatga olib faoliyatimizni yanada kengaytirish, qo'shimcha ish o'rnlari yaratish va quritilgan meva-sabzavotlarni xorijga eksport qilish harakatidamiz - deydi "Far frukto" MCHJ rahbari Hojiakbar Murodov.

Harakatda barokat - deyishadi. Darhaqiqat oramizdagи Hojiakbar Murodov singari olg'a intilayotgan, timay mehnat qilib, mavaffaqiyatga erishayotgan insonlar barchaga birdek o'rnak bo'la oladi. Zero, el xizmatida bo'lган bunday mehnatkash insonlarni xalqimiz doimo e'zozlaydi.

